

Ko'p qavatli axoli turar joylarining seysmik mustahkamligini aniqlash amaliyoti o'tkazilmoqda

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 maydagi "O'zbekiston Respublikasi seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-144-son farmonining 16.4-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida, Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti mutaxassislari tomonidan «Bino va inshootlarni zamonaviy kompyuter dasturlari yordamida modellashtirish» fani bo'yicha intensiv kurs tashkil etildi.

Unda Namangan muhandislik-qurilish instituti, Farg'ona politexnika instituti, Jizzax politexnika instituti professor-o'qituvchilari, doktorant va magistr talabalari qatnashdi. Shuningdek, mazkur amaliyotda mamlakatimiz olimlari bilan bir qatorda Yaponiyalik seysmolog, professor Chikaxiro Minova ishtirok etdi.





O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini 2025 yilgacha takomillashtirish kontsepsiyasini 2022-2023 yillarda amalga oshirish yo'l xaritasi ning 2-ilovasi 26-bandida Namangan muhandislik-qurilish instituti hamda Farg'ona politexnika instituti o'qituvchilari va magistrantlarining Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida zilzilabardoshlik bo'yicha amaliyot o'tashi tizimini yo'lga qo'yish ko'rsatib o'tilgan. Ushbu bandi ijrosini ta'minlash maqsadida 5-10 iyun kunlari Toshkentdagi Turin politexnika universitetida Namangan muhandislik-qurilish instituti va Farg'ona politexnika instituti o'qituvchi va magistrantlari uchun zilzilabardoshlik bo'yicha amaliyot o'tashi rejalashtirilgan.